

**KONFERENSIYALAR UZ**

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI**

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**AVGUST, 2025-YIL**



# **O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI**

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

**TOSHKENT-2025**

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI.** IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** “Scienceproblems Team” MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 05-avgust

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda “O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari” nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**Barcha huquqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### TEXNIKA FANLARI

*Foziljonov Xojjiakbar*

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ  
CBT ..... 7-11

*Mamadaliyeva Gulhayo*

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI  
UNING ISH KO'RSATGICHLARIGA TA'SIRI ..... 12-16

*Iskandarov Orifxon*

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV ..... 17-19

### TARIX FANLARI

*Bobojonova Zuxra*

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI  
QIYOSIY FARQLAR ..... 20-23

*Sattarova Marhabo*

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY  
JARAYONLARGA TA'SIRI ..... 24-25

*Xasanova Nargiza*

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA ..... 26-29

*Rustamova Nigora*

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH  
ISTIQBOLLARI ..... 30-32

*Xalilov Baxodir*

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"  
TASHKILOTI FAOLIYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) ..... 33-37

*Норов Шухрат*

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) ..... 38-41

*Sattarova Marhabo*

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY  
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) ..... 42-43

### IQTISODIYOT FANLARI

*Qo'chqarov Baxtiyor*

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH  
METODIKASI ..... 44-47

*Abduraimova Nigora*

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH  
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI ..... 48-51

*Sidiqov Jasurbek*

IJTIMOY INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR ..... 52-56

*Nematova Dilnoza*

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 57-63

*Axmedova O'g'ilshod*

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI  
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI ..... 64-66

|                                                                                                                                             |         |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Abduraimova Nigora</i><br>TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR .....                             | 67-70   |
| <i>Tuychiyev Anvarjon</i><br>MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI .....                                       | 71-75   |
| <i>Asqarov Abrorjon</i><br>TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI .....   | 76-85   |
| <i>Yusufjonov Ravshanbek</i><br>INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....                                                                 | 86-88   |
| <b>FALSAFA FANLARI</b>                                                                                                                      |         |
| <i>Gafurova Munajat</i><br>O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGSIZLIGINING IJTIMOY TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....           | 89-92   |
| <i>Abdullayev Sodiqjon</i><br>ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI .....                                 | 93-98   |
| <b>FILOLOGIYA FANLARI</b>                                                                                                                   |         |
| <i>Yusufova Farangiz</i><br>HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN.....                                                     | 99-102  |
| <i>Xoliyorova To'lg'anoy</i><br>O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI .....          | 103-104 |
| <i>Ro'ziyev Temur</i><br>IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI .....                                                            | 105-112 |
| <i>Eshchanova Mavjuda</i><br>CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....                    | 113-115 |
| <i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuza</i><br>ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida)..... | 116-119 |
| <i>Bahromjonova Shahnoza</i><br>"MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI .....                                       | 120-122 |
| <i>Maxmudova Marjona</i><br>"DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....                             | 123-124 |
| <i>Gulmuradova Sobira</i><br>TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIKMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....                                                  | 125-127 |
| <i>Qurbonova Aziza</i><br>O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARNING AHAMIYATI .....                                                       | 128-129 |
| <i>Pulatjonova Muxtasar</i><br>ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....                            | 130-136 |

|                                                                                                                                                                                          |         |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Qosimova Malika</i><br>LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH<br>METODLARI .....                                                                      | 137-140 |
| <i>Ayimbetova Damekhan</i><br>ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA<br>OBRAZLAR TIZIMI .....                                                    | 141-145 |
| <i>Yo'ldasheva Mahliyo</i><br>"MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK<br>XUSUSIYATLARI .....                                                              | 146-149 |
| <b><i>YURIDIK FANLARI</i></b>                                                                                                                                                            |         |
| <i>G'ofurov Ramzbek</i><br>DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI .....                                                                                                           | 150-154 |
| <i>Turdibaeva Mukhaddas</i><br>JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES .....                                                                                            | 155-160 |
| <i>Gafurova Shoir</i><br>ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM<br>ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI .....                                                                                     | 161-165 |
| <i>Komilov Avazbek</i><br>PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RSIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI<br>VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR .....                       | 166-169 |
| <i>Babajanov Farrux</i><br>IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS<br>ETTIRISH .....                                                                  | 170-175 |
| <b><i>PEDAGOGIKA FANLARI</i></b>                                                                                                                                                         |         |
| <i>Нуриллаева Угулхон</i><br>ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ<br>ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И<br>ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ .....  | 176-181 |
| <i>Tursinova Zoxida</i><br>TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI<br>BAHOLASH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGINI<br>OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI ..... | 182-191 |
| <i>Babayeva Shahnoza</i><br>BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI<br>RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI .....                           | 192-194 |
| <i>Rasulova Barnoxon</i><br>KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV<br>INNOVATSION BAHOLASH USULLARI .....                                                  | 195-199 |
| <i>Zokirjonov Akramjon</i><br>O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI .....                                                                                          | 200-202 |
| <i>Baratova Yulduz</i><br>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN<br>YONDASHUVNING AHAMIYATI .....                                                           | 203-206 |

*Sattoriy Shohruh*

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI ..... 207-210

### **TIBBIYOT FANLARI**

*Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza*

AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN..... 211-213

*Мамадалиев Хасанхон*

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)

И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ..... 214-218

*Maxmudbekov Boburmirzo*

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA

OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH..... 219-221

### **PSIXOLOGIYA FANLARI**

*Усманова Лилия*

ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ

ТРАДИЦИИ ..... 222-225

### **SIYOSIY FANLAR**

*Sa'diyev Bahodir*

ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI..... 226-231

## FILOLOGIYA FANLARI

### HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIY-ESTETIK TALQIN

**Yusufova Farangiz**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Halima Xudoyberdiyeva lirikasida umid va ishonch motivlari yoritilgan bo'lib, sherlari asosida shoironing ruhiyati va kayfiyati o'rganilgan. Tahlilda obrazlar orqali badiiy-estetik talqini bayon qilingan. Halima Xudoyberdiyeva she'rlari orqali kelajakka bo'lgan ishonch, sabr, ayol qalbi va dardi tarixiy faktlar asosida yoritilgan. Turli falsafiy-badiiy chizgilar asosida shoira lirikasi tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** Halima Xudoyberdiyeva, lirika ruhiy tafakkur, o'tmish ishonch, umid ayol qalbi Nodirabegim.

### ARTISTIC-AESTHETIC INTERPRETATION IN THE POETRY OF HALIMA KHUDOYBERDIYEVA

**Yusufova Farangiz**

Master's student of Sharof Rashidov Samarkand State University

**Annotation.** This article highlights the motifs of hope and trust in the lyrics of Halima Khudoyberdiyeva, and the poet's psyche and mood are studied on the basis of her poems. The analysis presents an artistic-aesthetic interpretation through images. Through Halima Khudoyberdiyeva's poems, faith in the future, patience, a woman's heart and pain are highlighted on the basis of historical facts. The poet's lyrics are analyzed on the basis of various philosophical and artistic lines.

**Keywords:** Halima Khudoyberdiyeva, lyrics, spiritual thought, past, trust, hope, a woman's heart, Nodirabegim.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-22>

Har bir ijodkorda bo'lgani kabi, Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida ham, mavzu erkinligi, rang-barangligi diqqatimizni o'ziga tortadi. Shoira vafo, sadoqat, muhabbat, ayol, Ona kabi azaliy mavzularda qalam tebratibgina qolmay, bu mavzular shoironing nozik qirralarini ochishga xizmat qiladi. Xususan, shoira tarixga aynan Vatanimizning tarixiga murojaat qilib o'tmishimizning zarvaraqalarini bitta-bitta varaqlay boshlaydi va o'zining fikr munosabatini lirik kechinmalari hamohangligida o'tmishni she'riyatga bog'lab, tarixni jonlantiradi. Tarix o'tmishda bo'lgan voqea-hodisalar haqida so'zlasa, she'riyat o'tmishga ruh baxsh etadi, xalqning orzu-maqсадlari, boshdan kechirganlari, orzu-umidlari to'g'risida so'zlaydi. Masalan, shoira "Saylanma"sidan joy olgan "Mohlaroyim tug'ilajak" she'rida "Nodirai davron fojeasi, Mashrab, Mirzo Ulugbek fojeasi kunlari kabi xalqimiz tarixida qonli yoshlar to'kadirgan, o'z qonli yoshlarimizga o'zimiz cho'kadirgan kunlar bo'lib qoladi. O'tmishni o'zgartirib bo'lmaydi. Ammo undan saboq olib, xulosalar chiqarib, yashash har mo'min-musulmonga ham qarz, ham farzdir..."[1,358] deydi va mazkur she'ri shunday misralar bilan boshlanadi:

Xalqim deyman ruhim tushib,  
Kimlar ko'ngling to'q qildilar.  
Ming so'qiring til topishib  
Bir uyg'og'ing yo'q qildilar

Misralardan anglashiladiki, shoiraning kayfiyati to'g'ridan to'g'ri misralarga ko'chadi, bunda shoira nimadandir norozi u buni xalqiga so'zlaydi. Xo'sh, shoira nega bunday holatda? O'tmishdan ma'lumki, ma'naviyati yuqori, xalq uchun jon kuydirgan, ilm-marifat homiylari albatta zolimlar qo'lida halok etilgan, jumladan Mashrab, Mirzo Ulug'bek, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi namoyondalarni misol tariqasida keltirish mumkin. Halima Xudoyberdiyeva bu safar Mohlaroyim ya'ni Nodirabegimni mavzu sifatida tanlaydi va uning qonli taqdiri to'g'risida o'z qarashlarini she'r orqali o'quvchiga taqdim etadi.

Nodirabegim (1792-1842) Andijonda Rahmonqulibiy xonadonida dunyoga kelgan. Amir Umarxonga turmushga chiqqan. Amir Umarxon shoh va shoirdir. Amiriy taxallusi bilan ijod qilgan. "Nodira 30 yoshilarga borganda Umarxon og'ir xastalikka uchrab vafot etadi. Shundan so'ng shoira valiaxd o'g'li Muhammad Alixon hali yosh bo'lganligi uchun mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotida ishtirok etadi"[2,214]

Keyingi misralarda shoira shunday deydi:

Nodira she'r aytdi erib,  
O'likka ham o't, kuch berdi.  
Lekin birov fatvo berib,  
Nasrulloqa qilich berdi...

Ushbu misralarda Nodiraning ruhiy holati tasvirlanadi u qoldirgan asarlarning har birida ruhiy-hissiy tuyg'ular junbushga chiqadi, shoiraning fikricha u erib ijod qiladi, ikkinchi misrada she'rlari shunchaki she'r emas, balki o'likka ham o't yoki olovli kuch beradigan ijodiy meros qoldirganiga ishora qiladi. Shuni eslatib o'tish kerakki, Nodiraning g'azal musaddas, muxammas, firoqnoma, tarji'band, tarkiband kabi lirik merosiga egamiz.

"Nodira shafqatsiz Amir Nasrullo tomonidan qatl ettirilganligi jahon tarixidagi eng dahshatli fojia viy hodisalardan biridir"[3,224]. Halima Xudoyberdiyeva Buxoro amirining Mohlaroyimni qatl ettirganligi bayon qiladi, shoira o'zining bu amirga nisbatan nafratini badiiy tasvirlar asosida tasvirlaydi. O'z xalqini o'tkir tig'ga o'xshatib metaforadan ustalik bilan foydalanadi va xalqiga qarata shunday deydi:

Xalqim, garchand o'tkir tig'san  
Yolgi'zlanma, qush-qush o'tgin  
Nasrulloday o'g'il tug'sang,  
Jonim onam, bepusht o'tgin.

Nodirani fojia viy o'limi shoirani iztirobga soladi va buni u yurakdan his qiladi, barcha onalarga qarata iltijo ohangida "jonim onam, bepusht o'tgin" deya bunaqa farzandning bo'lganidan bo'lmagani yaxshi deydi go'yo. Rahmonqul Orzibekovning O'zbek adabiyoti tarixi qo'llanmasida "Bu fojia haqida hattoki o'sha davrda yashagan Mutribning " Shohnomai devona Mutrib", Mirzo Olimning "Ansob us-salotin va tavorixi xavoqin", asarlarida chuqur achinish bilan bitib qoldirilgan. Mullo Niyoz bin Oxund Muhammadning "Tarixi Shohruxiya", Armaniy Vamberining " Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi" asarlarida ham bu haqda gapiriladi"[4,224] deb ma'lumot beriladi.

Aytgin, xalqim, orim, shanim,  
Biz u yo'ldan bormayamiz,—de  
Qayta topsak Nodirani  
Nasrulloqa bermaymiz,—de

Shoira she'rlariga e'tibor qaratarkan ekanmiz undalmalar orqali turli narsa yoki hodisalarni jonlantirishga muvaffaq bo'ladi. Xususan yuqoridagi misralarda xalqiga qarata murojaat qilar ekan, u yanada emotsionallikni oshirish maqsadida xalqini "orim", "shanim" deb ulug'laydi va tasrchanlikni oshiradi.

Ma'lumki ayol muqaddas zot buni shoira takrorlashdan charchamaydi ayniqsa sharqda ayollar ilmi, sabr-matonat ramzidir. U zot farzand tarbiyachisi kelajak poydevorining tamal toshini qo'yadiga bunyodkordir. Shoira yana iltijo qiladi, Nodiradek ayollarni uvolidan qurqadi, ularni baddin kimsalardan asrashni so'raydi. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida ayol obrazi yuqori o'rinda turadi u gohida Ona, opa-singil, qizlar obrazini gavdalantirsa ushbu she'rda esa Nodirabegimga diqqat-e'tiborini qaratadi, she'rning oxirgi bandida shoira kelajakka umid bilan qaraydi shoira she'rning boshlanish nuqtasida tarixning qora dog'larini qalamga olgan bo'lsa, asta-sekinlik bilan bu dog'lar kelesakka bo'lgan ishonchga, umidga aylanadi, o'quvchiga ijobiy kayfiyat ulashadi aslida ham shunday tarix yo'l quyilgan xatoni boshqa takrorlamaslikka o'rgatadi, buni shoira yaxshi bilgani holda she'rning yakuniy misralarida shunday deydi:

Uyg'ondik de, tiklan, qalqqin,  
Ko'zlarngda kun kulajak.  
Sen ishontir, shu kun, xalqim,  
Moxlaroyim tug'ilajak.

Hozirgi kunda jamiyatimizda ayollarning o'rni beqiyosdir. Ular ta'lim, ilm-fan sohasida shuningdek siyosat va rahbarlikda, sog'liqni saqlash hamda biznesda eng asosiysi oilada asosiy kuch bo'lib kelmoqda. Halima Xudoyberdiyeva mana shunday ayollarimizni ehtimol kelajagimiz "Moxlaroyim"lari sifatida e'tirof etgandir.

"Lirikaning bosh xislati shoir qalbida yuz beradigan kechinma, shu kechinma uyg'otgan tuyg'ularni so'z orqali voqe qilish san'atidir"[5,148] Ijodkorning xarakteri va uning kayfiyati uning asarlariga beixtiyor ko'chadi, ijodkor nimani nazarda tutayotganligi yaratilgan asarning mazmunidan bilinib turadi. Halima Xudoyberdiyevaning ham asarlariga diqqat qilinsa ayol ruhiyati olamini chuqur bilimdoni ekani, she'rlarida ayolning nozik qirralaridan tortib uning kuchli tomonlarini kashf qilib borish mumkin, masalan ishonch, umid kabi fazilatlar Halima Xudoyberdiyeva xarakteriga xos bo'lgan tushunchalar bo'lib yuqoridagi she'rdan ham kelajakka bo'lgan ishonch aniq ko'rinib turadi. Shoiraning "Buyuk qushlar" to'plamidan o'rin olgan quyidagi to'rtligida shunday deydi:

Mening bor yo'g'im umidga o'tgan,  
Farqlay olmay goho yolg'on, chinni men,  
Har bitta kesakdan  
Gavharlik kutgan,  
Javohirlik kutgan jinniman

Ayol zotining hilqatigiga e'tibor berilsa uning taqdiri, kechmishi umid ustiga qurilgani ma'lum bo'ladi. U tug'lishidan baxtning umidida, keyinchalik yorga umid qilib hattoki farzandining kelajagiga umid bilan umr go'zarolik qiladi, hatto hozir barchasi qorong'u yomon bo'lsa-da " har bitta kesakdan gavharlik kutadi" u ishonadi yorug' kunlar kelishiga, nimalardir yaxshi tomonga o'zgarishiga chunki bu ruhiy kuchdir, ayolga berilgan ustuvor kuchdir bu kuchdan shunday foydalanadiki, hatto o'zini "jinni" deb tariflaydi bu jinnilik hayotiy kuch

manbai insonni kelajak tomon, ildamlashga undaydigan ruhiy ustundir. Zero Qur'onda Alloh aytadi: " Allohning rahmatidan noumid bo'lmanglar" ( Zumar surasi, 53-oyat)

Xullas Halima Xudoyberdiyeva she'riyati ruhiyat ustunlik qiladi. Bu ruhiy manzarani tasvirlash maqsadida turli badiiy tasvirlardan masalan, o'xshatish, ma'no kuchaytirishlardan, shuningdek biror kishi yoki narsaga qarata murojaat qilib o'z munosabatini kayfiyatini kuchliroq ifodalash uchun foydalanadi. Shoiraning ijodiga e'tibor qilinsa voqelar kechinmalar g'amli holatdan ijobiy tomonga o'zgara boshlaydi, asta-sekin go'zal bir shaklda namoyon bo'la boshalydiki bu holatni umid, ishonch, sabr-toqat ko'ngilga jo bo'lgan go'zal tuyg'ular deyish mumkin.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Halima Xudoyberdiyeva. "Saylanma" "Sharq"3 nashriyoti Toshkent-2000, 358-bet
2. Rahmonqul Orzibekov. O'zbek adabiyoti tarixi Toshkent-2006 214-224 betlar
3. Hotam Umurov, Azmiddin Nosirov. Adabiyotshunoslik nazariyasi Samarqand-2021 148-bet
4. Halima Xudoyberdiyeva. Buyuk qushlar. To'plam Toshkent-2012 709-bet
5. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri Shayx Abdulaziz Mansur Toshkent- 2019, 464-bet

# **O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI**

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**  
2025-yil, 05-avgust

**Mas’ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM  
ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi  
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o‘tkazilgan sana:** 2025-yil, 05-avgust

**ISBN 978-9910-09-259-6**

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Scienceproblems team, 2025-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.